



**XASHAKI LAVLAGI PARVARISHLASHDAGI IQTISODIY
SAMARADORLIK VA ISHLAB CHIQUARISHDAGI TAJRIBA
NATIJALARI**

1Xalikov Baxodir Meylikovich,

2 Esirgapova Umida Xasanovna,

2 Po'latov Sarvar Mustafoevich

1Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish
agrotexnologiyalar ilmiy-tadqiqot instituti

2Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

Annotatsiya

Qishloq xo'jaligi tarmog'ining asosiy sohalaridan biri bu-chorvachilik hisoblanadi. Aholini go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan talabini o'zimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisobiga qoplash hamda mazkur mahsulotlar eksport salohiyatini yanada oshirish qishloq xo'jaligining, xususan chorvachilik sohasini ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu maqolada xashaki lavlagi parvarishlashdagi iqtisodiy samaradorlik va ishlab chiqarishdagi tajriba natijalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Xashaki lavlagi, ozuqa, ko'chat qalinligi, ma'dan o'g'itlar, ildizmeva massasi, o'g'it me'yorlari, lavlagi bargi.

Ayni vaqtda chorvachilikdagi muhim muammolardan biri chorvachilikda ozuqa bazasini mustahkamlash, ozuqa ratsioni yuqori bo'lgan yem-xashak ekinlari turini tanlash, ularni introduksiya qilish, urug'chiligini rivojlantirish va turli tuproq-iqlim sharoitlarida parvarishlash agrotexnologiyasini ishlab chiqish, pirovardida ishlab chikaruvchilarga tavsiya va takliflar berishdan iboratdir. Bu esa ishlab chiqarishda mahsulot hajmi va sifatini oshirish va kelgusida yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Chorvachilikda yem-xashak bazasini ta'minlashga xizmat qiladigan ekin turlari ko'p. Ammo, mazkur ekinlarni qishloq xo'jaligida ekinlarni joylashtirish



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

strukturasidan kelib chiqib, ularni ekish maydonini ko'paytirish biroz muammo yaratadi. Shuning uchun yem-xashak ekinlarni ekishda yuqori kaloriyaga ega, ozuqaviy sifat ko'rsatkichlari nisbatan yuqori bo'lgan ekin turlarini tanlash kerak. Ana shunday ekin turlaridan biri bu xashaki lavlagi hisoblanadi.

Shulardan kelib chiqqan holda Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida xashaki lavlagidan yuqori va sifatli ildizmeva va barg hosili olish maqsadida uni ko'chat qalinligi hamda mineral o'g'itlarga bo'lgan talabini aniqlash, mahsulot yetishtirishda sarflangan xarajat, mahsulotni sotishdan tushgan umumiy daromad hamda sof foydani hisoblash xashaki lavlagi yetishtirishdagi iqtisodiy tomondan maqbul bo'lgan variantni ishlab chiqarishga tavsiya etishdan iborat.

Xashaki lavlagida iqtisodiy samaradorlikni hisoblash uchun ekilgan urug'lik, qo'llanilgan mineral o'g'itlar, begona o'tlarga qarshi ishlatilgan gerbitsidlar, yoqilg'i moylash materiallari, amortizatsiya, hosilni yig'ish va tashish va boshqalarga sarflangan harajatlar bozor narhlari asosida olindi. Bunda 1 kg xashaki lavlagining 1-avlod urug'ligi 30000 so'm, 1 litr dizel yoqilg'isi 12000 so'm, xashaki lavlagi 1 kg ildizmeva sotish narxi 50 so'mdan hisob-kitob qilindi.

Xashaki lavlagi yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uchun tadqiqot natijalaridan olingan uch yillik o'rtacha ildizmeva hosili belgilangan xarid narxiga ko'paytirish yo'li bilan sotishdan tushgan yalpi daromad hisoblandi. Sotishdan tushgan yalpi daromaddan jami harajatlar olib tashlanib, sof daromad aniqlandi. Jami harajatlarni uch yillikdagi o'rtacha hosildorlikka bo'lib, 1 kg mahsulot yetishtirishdagi tannarx aniqlandi. Sof daromadni jami harajatga bo'lib, rentabellik hisob-kitob qilindi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, tajribada eng yuqori iqtisodiy samaradorlik xashaki lavlagini ko'chat qalinligi gektariga 90-100 ming dona qoldirib, uni parvarishlashda mineral o'g'itlarni NPK 160:120:80 kg/ga me'yorda qo'llanilgan 7-variantda aniqlanib, bunda shartli sof foyda 14846606 so'm/gani, bir kilogramm mahsulot ishlab chiqarish tannarhi 27,20 so'm/kgni, rentabellik darajasi esa 83,7 % ni tashkil etdi.

Shu ko'chat qalinligida mineral o'g'itlarni NPK 120:90:60 kg/ga me'yorda qo'llab, parvarish qilingan 6-variantda esa mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 12375680 so'm/ga; 21,48 so'm/kg; 75,3 %ni, mineral o'g'itlarni NPK 200:140:100 kg/ga

International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

me'yori qo'llanilgan 8-variantda ushbu ko'rsatkichlar 14.783.156 so'm/ga; 27,95 so'm/kg; 78,8 %ni tashkil etdi.

Xashaki lavlagida ko'chat qalinligini gektariga 70-80 ming dona qoldirib, mineral o'g'itlarni NPK 120:90:60 kg/ga me'yorida qo'llab parvarish qilingan 2-variantda shartli sof foyda 10149768 so'm/gani, 1 kg mahsulot ishlab chiqarish 30,57 so'm/gani, rentabellik darajasi esa 63,5%ni tashkil etdi.

Shu ko'chat qalinligida mineral o'g'itlarni NPK 160:120:80 kg/ga me'yorda qo'llab, parvarish qilingan 3-variantda esa mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 11000334 so'm/ga; 30,49 so'm/kg; 63,9 %ni, mineral o'g'itlarni NPK 200:140:100 kg/ga me'yori qo'llanilgan 4-variantda ushbu ko'rsatkichlar 12271842 so'm/ga; 29,90 so'm/kg; 67,2 %ni tashkil etdi.

Ko'chat qalinligini gektariga 110-120 ming dona qoldirib, mineral o'g'itlarni NPK 120:90:60 kg/ga me'yorida qo'llab parvarish qilingan 10-variantda shartli sof foyda 11856290 so'm/gani, 1 kg mahsulot ishlab chiqarish 28,79 so'm/gani, rentabellik darajasi esa 73,6 %ni tashkil etdi. Mineral o'g'itlarni NPK 160:120:80 kg/ga me'yorda qo'llab, parvarish qilingan 11-variantda esa mazkur ko'rsatkichlar

1-jadval Xashaki lavlagi yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi

va r Ne	Ko'chat qalinligi, ming/ga	Ma'dan o'g'itlar meyori, kg/ga	Ildizmeva hosili, s/ga (uch yilda o'rtacha)	Qo'shimc ha hosil, s/ga	Sotishdan tushgan umumiy daromad, so'm/ga	Jami ishlab chiqarish xarajatlari, so'm/ga	Shartli sof foyda, so'm/ga	Rentabellik darajasi, %
1	70-80	O'g'itsiz (nazorat)	284,3	-	14215000	11920000	2295000	19,2
2		NPK 120:90:60	522,5	238,2	26125500	15975732	10149768	63,5
3		NPK 160:120:80	564,0	279,7	28200000	17199666	11000334	63,9
4		NPK 200:140:100	610,7	326,4	30535000	18263158	12271842	67,2
5	90-100	O'g'itsiz (nazorat)	304,0	19,7	15200000	11986520	3213480	26,8
6		NPK 120:90:60	576,0	325,5	28800000	16424320	12375680	75,3
7		NPK 160:120:80	651,4	434,8	32570000	17723394	14846606	83,7
8		NPK 200:140:100	670,7	426,7	33535000	18751844	14783156	78,8
9	110-120	O'g'itsiz (nazorat)	319,8	35,5	15990000	12039872	3950128	32,8
10		NPK 120:90:60	559,2	276,1	27960000	16103710	11856290	73,6
11		NPK 160:120:80	613,2	342,6	30660000	17412062	13247938	76,1
12		NPK 200:140:100	646,5	362,5	32325000	18385058	13939942	75,8



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

mos ravishda 13247938 so'm/ga; 28,39 so'm/kg; 76,1 % ni, mineral o'g'itlarni NPK 200:140:100 kg/ga me'yori qo'llanilgan 12-variantda esa ushbu ko'rsatkichlar 13939942 so'm/ga; 28,43 so'm/kg; 75,8 % ni tashkil etdi.

Tajribada eng kam iqtisodiy samaradorlik xashaki lavlagini o'g'itsiz parvarish qilingan 1, 5 va 9-variantlarda aniqlanib, bunda 1-variantda shartli sof foyda 2295000 so'm/gani, 1 kg mahsulot ishlab chiqarish 41,92 so'm/kgni, rentabellik darajasi esa 19,2 %ni, 5-variantda mos ravishda 3213480 so'm/ga; 39,42 so'm/kg; 26,8 %ni, 9-variantda esa 3950128 so'm/ga; 37,64 so'm/kg; 32,8 %ni tashkil etganligi aniqlandi.

Shuningdek, ko'chat qalinliklari bo'yicha eng kam iqtisodiy samaradorlik ko'chat qalinligi gektariga 70-80 ming dona bo'lgan tajribaning 1, 2, 3 va 4-variantlarida kuzatilib, bular iqtisodiy ko'rsatkichlarga tegishli ravishda 2.295.000 so'm/ga; 41,92 so'm/kg; 19,2 %, 10.149.768 so'm/ga; 30,57 so'm/kg; 63,5 %, 11.000.334 so'm/ga; 30,49 so'm/kg; 63,9 %, 12.271.842 so'm/ga; 29,90 so'm/kg; 67,2 % bo'lganligi aniqlandi.

Umuman olganda, Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida xashaki lavlagida ko'chat qalinligini gektariga 90-100 ming dona qoldirib parvarish qilish, uni gektariga 70-80 ming dona qoldirib parvarish qilishga nisbatan 2511314 so'm/ga.dan 2606912 so'm/ga.gacha, gektariga 110-120 ming dona qoldirib parvarish qilishda esa 519000 so'm/ga.dan 1598668 so'm/ga.gacha, mineral o'g'itlarni ko'chat qalinligi gektariga 90-100 ming dona bo'lgan xolatda NPKni 160:120:80 kg/ga me'yorda NPK 120:90:60 kg/ga me'yorda qo'llashga nisbatan 63450 so'm/ga, NPK 200:140:100 kg/ga me'yorda qo'llashga nisbatan esa 2470926 so'm/ga miqdorida ko'p shartli sof foyda olinishi aniqlandi.

Yuqorida keltirilgan hisob-kitoblardan xulosa qilish mumkinki, eng yuqori iqtisodiy samaradorlik xashaki lavlagini ko'chat qalinligi gektariga 90-100 ming dona qoldirib, uni parvarishlashda mineral o'g'itlarni NPK 160:120:80 kg/ga me'yorda qo'llanilgan 7-variantda aniqlanib, bunda shartli sof foyda 14.846.606 so'm/gani, bir kilogramm mahsulot ishlab chiqarish tannarhi 27,20 so'm/kgni, rentabellik darajasi esa 83,7 %ni tashkil etdi.

Tajribada eng kam iqtisodiy samaradorlik xashaki lavlagini o'g'itsiz parvarish qilingan 1-variantda aniqlanib, bunda shartli sof foyda 2295000 so'm/ga.ni, 1 kg



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

mahsulot ishlab chiqarish 41,92 so'm/kg.ni, rentabellik darajasi esa 19,2 %ni tashkil etdi.

Xashaki lavlagini parvarishlashdagi iqtisodiy samaradorlik bo'yicha qilingan to'liq hisob-kitoblar dissertasiyaning 1-jadvalida keltirildi.

Ishlab chiqarish tajriba natijalari. Ma'lumki, ilmiy tadqiqotlarda sinovdan o'tib, maqbul deb topilgan variantlar kattaroq maydonlarda ishlab chiqarish tajriba sinovlaridan o'tishi kerak. Bu bilan ilmiy tadqiqotlarda olingan natijalar ishlab chiqarish sharoitida nechog'lik o'zini oqlashi, ilmiy tajribadan olingan natijalar bilan o'zaro mos kelishi nazoratdan o'tkaziladi.

Shularni hisobga olgan holda mazkur ilmiy tadqiqotda maqbul deb topilgan variantlar Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi Bog'zor fermer xo'jaligi dalalarida ishlab chiqarish tajribasi sifatida 2024-yilda o'tkazildi. Ishlab chiqarish tajribasini o'tkazishda ilmiy tadqiqotda eng yaxshi natijalarni namoyon etgan variantlar tanlab olindi. Bunda ishlab chiqarish tajriba sinovlari to'rt variantdan iborat bo'lib, xashaki lavlagining ikkita ko'chat qalinligi (90-100 va 110-120 ming/ga) va ikkita mineral o'g'itlarning me'yorlari (NPK 160:120:80 kg/ga va NPK 200:140:100 kg/ga) tanlab olindi.

Ishlab chiqarish tajriba tizimi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval Ishlab chiqarish sharoitida o'tkazilgan tajriba tizimi

Var	Ko'chat qalinligi, ming/ga	Ma'dan o'g'itlar me'yori, kg/ga
1	90-100	NPK 160:120:80
2		NPK 200:140:100
3	110-120	NPK 160:120:80
4		NPK 200:140:100

Ishlab chiqarish tajriba sinovlaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra, xashaki lavlagida ko'chat qalinligi 90-100 ming/ga bo'lishi belgilangan 1 va 2-variantda xaqiqiy ko'chat qalinligi amal davri oxirida mos ravishda 97,8 97,5 ming/ga ni, gektariga

International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

110-120 ming dona belgilangan 3 va 4-variantlarda ushbu ko'rsatkich esa 114,1 va 114,3 ming/ga.ni tashkil etib, ko'zda tutilgan ko'chat qalinligi saqlab qolindi.

Xashaki lavlagini amal davri oxirida olingan ma'lumotlarga ko'ra, ko'chat qalinligi gektariga 90-100 ming dona bo'lib, mineral o'g'itlar me'yorlari gektariga NPK 160:120:80 kg/ga bo'lgan 1-variantda o'simlikdagi barglar soni o'rtacha 32,1 donani, barglar massasi 227,4 g.ni, ildizmeva uzunligi 28,6; sm.ni, ildizmeva diametri 16,3 sm.ni, ildizmeva massasi 688,7 g.ni, barg hosildorligi 222,4 s/gani, ildizmeva hosildorligi 678,5 s/gani tashkil etgan bo'lsa, tajribaning 2-variantida, ya'ni mineral o'g'itlar gektariga NPK 200:140:100 kg/ga qo'llanilganda mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda barglar soni 34,7 donani, barg massasi 237,9 g.ni, ildizmeva uzunligi 29,1 sm.ni, ildizmeva diametri 15,9 sm.ni, ildizmeva massasi 691,3 g.ni, barg hosili 231,9 s/gani, ildizmeva hosili esa 674,0 s/ga.ni tashkil etdi.

3-jadval Ishlab chiqarish sharoitida o'tkazilgan tajribada ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'it me'yorlarining xashaki lavlagini o'sishi, rivojlanishi, ildizmeva va barg hosildorligi hamda yem-xashak ko'rsatkichlariga ta'siri

Var Ns	Ko'chat qalinligi, ming/ga	Ma'dan o'g'it me'yorlari, kg/ga	Amal davri oxiridagi ko'rsatkichlar											
			ko'chat qalinligi, ming/ga	barglar soni, dona	barglar massasi, g	ildizmeva uzunligi, sm	ildizmeva diametri, sm	ildizmeva massasi, g	barg hosildorligi, s/ga	ildizmeva hosildorligi, s/ga	Ozuqa birligi, kg/ga		Hazm bo'luvchi protein, kg/ga	
											ildizmeva	bargda	ildizmeva	bargda
1	90-100	NPK 160:120:80	97,8	32,1	227,4	28,6	16,3	688,7	222,4	678,5	81420	22240	6061	444
2		NPK 200:140:100	97,5	34,7	237,9	29,1	15,9	691,3	231,9	674,0	80880	23190	6066	463
3	110-120	NPK 160:120:80	114,1	32,8	231,2	29,5	14,3	541,3	263,8	617,6	74112	26380	5558	527
4		NPK 200:140:100	114,3	35,2	241,4	30,4	14,6	574,6	275,9	657,4	78888	27590	5916	551



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

Bunda e'tiborli jihati shundaki, 90-100 ming/ga ko'chat qalinligida mineral o'g'itlarni gektariga NPK 200:140:100 kg/ga me'yorda qo'llanilganda barg bo'yicha ko'rsatkichlar NPK 160:120:80 kg/ga me'yorga nisbatan yuqori bo'lganligi, yoki aksincha ildizmeva bo'yicha ko'rsatkichlar esa mineral o'g'itlar me'yori NPK 160:120:80 kg/ga bo'lganda yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Ko'chat qalinligi gektariga 110-120 ming dona bo'lib, mineral o'g'itlar me'yori NPK 160:120:80 kg/ga bo'lgan 3-variantda barglar soni 32,8 donani, barglar massasi 213,2 g.ni, ildizmeva uzunligi 29,5 sm.ni, ildizmeva diametri 14,3 sm.ni, ildizmeva massasi 541,3 g.ni, barg hosildorligi 263,8 s/gani, ildizmeva hosildorligi 617,6 s/gani tashkil etgan bo'lsa, mineral o'g'itlar NPK 200:140:100 kg/ga me'yorda qo'llanilganda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 35,2 dona; 241,4 g; 30,4 sm; 14,6 sm; 574,6 g; 275,9s/ga; 657,4 s/ga.ni tashkil etdi. Ko'rinib turibdiki, mazkur ko'chat qalinligida xashaki lavlagida barcha yuqori ko'rsatkichlar mineral o'g'itlarni NPK 200:140:100 kg/ga me'yorda qo'llanilganda erishilgan.

Xashaki lavlagi ildizmevasining ozuqaviy sifat ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, tajribaning ko'chat qalinligi gektariga 90-100 ming dona bo'lib, mineral o'g'itlar NPK 160:120:80 kg/ga me'yorda qo'llanilgan 1-variantda ildizmevaning ozuqa birligi 81420 kg/gani tashkil etgan bo'lsa, hazm bo'luvchi prtoein miqdori 6061 kg/gani, mineral o'g'itlarni NPK 200:140:100 kg/ga me'yori qo'llanilgan 2-variantda esa mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 80880 kg/ga; 6066 kg/ga.ni tashkil etdi. Xuddi shu variantlarda bargning ozuqa birligi mos ravishda 22240; 23190 kg/ga va hazm bo'luvchi protein miqdori esa 444; 463 kg/gani tashkil etdi.

Ko'chat qalinligi gektariga 110-120 ming dona bo'lib, mineral o'g'it me'yorlari NPK 160:120:80 kg/ga bo'lgan 3-variantda esa ildizmeva ozuqa birligi 74112 kg/gani, hazm bo'luvchi protein miqdori 5558 kg/gani tashkil etgan bo'lsa, mineral o'g'itlar me'yori NPK 200:140:100 kg/ga qo'llanilgan 4-variantda esa mos ravishda 78888 kg/ga va 5913 kg/gani tashkil etdi. Barglarning ozuqa birligi mineral o'g'it me'yorlariga mos ravishda 26380; 27590 kg/gani, hazm bo'luvchi protein miqdori esa 527; 551 kg/ga bo'lganligi aniqlandi.

Ma'lumotlar 3-jadvalda keltirildi.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

Olingan natijalarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, Samarqand viloyatining tipik boʻz tuproqlari sharoitida oʻtkazilgan ishlab chiqarish tajribasidan olingan maʼlumotlar ilmiy tajriba maʼlumotlariga toʻliq mos kelib, mazkur tajribada ham eng yuqori ildizmeva hosildorligi koʻchat qalinligi gektariga 90-100 ming dona boʻlgan, mineral oʻgʻitlarni NPK 160:120:80 kg/ga va NPK 200:140:100 kg/ga qoʻllanilgan variantlarida kuzatilib, ildizmeva hosildorligi mos ravishda 673,5 va 674,0 s/gani tashkil etdi. Bu esa koʻchat qalinligi gektariga 110-120 ming dona boʻlgan, xuddi shu meʼyorda mineral oʻgʻitlar berilgan variantlar ildizmeva hosildorligidan mos ravishda 16,6-55,9 s/ga koʻp demakdir.

Barg hosildorligi boʻyicha eng yuqori koʻrsatkichlar esa koʻchat qalinligi gektariga 110-120 ming dona boʻlib, mineral oʻgʻitlarni NPK 200:140:100 kg/ga meʼyori qoʻllanilganda olinib, ushbu koʻrsatkich 275,9 s/ni tashkil etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Dala tajribalarini oʻtkazish uslublari -Toshkent, 2007, B.180.
2. Dospexov B.A. Metodika polevogo opita.-M: Kolos, 1985. B. 351
3. Metodi agrofizicheskix issledovaniy”. –Tashkent, Mexnat, 1973, S.17.
4. Sugʻoriladigan maydonlarda ozuqabop ekinlarni yetishtirish. Fermerlar uchun oʻquv-uslubiy qoʻllanma. Mualliflar: B.D.Allashov., S.Gʻ.Jamolov. 2019 yil, 21 bet.
5. Allashov B. D., Jamolov S. Gʻ. Chorva mollarini oziqlantirishda xashaki lavlagining ahamiyati J; Chorvachilik va naslchilik ishi. №6 (17), 2020, 50-51 betlar.
6. Allashov B. D., Jamolov S. Gʻ. Ozuqa bazasini mustahkamlashda hashaki lavlagi boʻyicha olib borilgan birlamchi urugʻchilik ishlari. J; Chorvachilik va naslchilik ishi. №5 (16), 2020, 61-62 betlar.
7. Ozuqabop ekinlarni yetishtirish. 100 kitob toʻplami. 48–kitob. B.D.Allashov, Toshkent, 2021, 28-29-betlar.
8. Xalikov B.M. Vliyanie gustoti stoyaniya i rejima orosheniya na virashivanie saxarnoy svekli. // Informatsionniy listok. –Tashkent: Uz INTI, 1996. -4 s.
9. Xoliqov B.M. Qand lavlagi yetishtirish agrotexnologiyasi va almashlab ekish. Toshkent, 2013, 14-15 betlar.
10. Xoliqov B.M. Qand lavlagi yetishtirish agrotexnologiyasi va almashlab ekish. Toshkent, 2013, 39-40 betlar.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

-
11. Xoliqov B.M. Qand lavlagi yetishtirish agrotekhnologiyasi va almashlab ekish. Toshkent, 2013, 41-43 betlar.
 12. Xoliqov B.M. Qand lavlagi yetishtirish agrotekhnologiyasi va almashlab ekish. Toshkent, 2013, 50-51 betlar.